

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR,  
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

“ZAMONAVIY TA'LIM YANGI YONDASHUVLAR VA  
DOLZARB TADQIQOTLAR”

Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari

**TO'PLAMI**



Andijon  
2023-yil 16-17 may

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,**

**FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR, PEDAGOGIKA VA**

**PSIXOLOGIYA KAFEDRASINING**

**“ZAMONAVIY TA'LIM: YANGI YONDASHUVLAR VA DOLZARB  
TADQIQOTLAR”**

respublika ilmiy-amaliy

konferensiyasi materiallari

TO'PLAMI

Andijon

2023 yil 16-17 may

**“ZAMONAVIY TA’LIM: YANGI YONDASHUVLAR VA DOLZARB  
TADQIQOTLAR”**

respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

materiallari to’plami

(2023-yil 16-17 may)

Ushbu to‘plam Andijon davlat chet tillari instituti rektorining 20023 yil 8maydagi 04-19-son buyrug‘iga asosan Andijon davlat chet tillari institutida 2023 yil 16-17 may kunlari Respublika miqyosida ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga kiritilgan “Zamonaviy ta’lim: Yangi yondoshuvlar va dolzarb tadqiqotlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tayyorlandi.

**Ma’sul muharrir:** p.f.n. dotsent A.Yu.Teshaboev

**Tahrir hay’ati:** t.f.n. dotsent Q.M.Nasritdinov  
p.f.n.dotsent N.D.Kasimova  
f.f.n. katta o‘qituvchi Q.Odilov  
f.f.n. katta o‘qituvchi I.S.Ergashev  
p.f.n. o‘qituvchi M.R.Mirzakarimova  
o‘qituvchi B.R.Turg‘unov  
o‘qituvchi A.G.Teshabaev  
o‘qituvchi G.A.To‘xtasunova  
o‘qituvchi S.M.Sirojiddinova  
o‘qituvchi D.S.Kambarova  
o‘qituvchi M.U.Mamadaliev  
o‘qituvchi D.G.Umnov

**Maqolalarda keltirilgan statistik ma’lumotlar, ilmiy-nazariy faktlarning ishonchliligi, imloviy va stilistik xatoliklar uchun muallif o‘zi javobgar.**

**To‘plam Andijon davlat chet tillari instituti Kengashining 2023 yil 12maydagi №8-sonli Qarori bilan nashrga tavsiya etildi.**

Madaniyat rivojiga hamda Xalqaro munosabatni rivojlantirishga elchilar, sayyohlar, savdogarlar tomonidan lotin tili qo'llaniladi. Darhaqiqat, til qudratining o'sishi madaniyat va adabiyotga bog'liq bo'lib, har bir xalqning madaniyati, ya'ni, o'y-fikrashi, odob-axloqi, qonun-qoidalari, qadriyatlari tilda aks etadi. Shunday ekan, xorijiy tillarni o'rganish bilan birgalikda madaniyatlararo shakllanish ta'lim mazmuniga qo'yilgan zamon talabi hisoblanadi. Yuqoridagilarnining barchasini hisobga olgan holda, biz yoshlarga berilgan imkoniyatlardan foydalanib, o'qib-izlanaylik va shu bilan birga yurtimiz dovrug'ini ko'klarga ko'tarib, butun dunyoga tanitaylik. Zero, yurt kelajagi biz yoshlar qo'lidadir!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Erin Meyerning "Culture Map".
2. Edward Hall "Beyond Culture".
3. Yangi O'zbekiston tarixi majmuasi.

### **DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILGANLIK HOLATI**

Narziyeva Shaxnoza Rustamovna

Buxoro davlat universiteti magistranti

Hozirgi paytda insonlarning psixik jihatdan sog'lom, me'yorida rivojlanishida, ularni ruhiy inqirozlardan, og'riqli kechinmalardan va umidsizlikdan olib chiqishda psixologik xizmatning o'rni kattadir. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda psixologlarning oldida turgan dolzarb muammolardan biri bu – inqirozli vaziyatlarda shaxsda kelib chiqadigan turli sohadagi buzilishlarni yanada chuqurroq o'rganish, ularning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishdan iboratdir. Chunki, inqirozli vaziyatlardan kelib chiqadigan turli darajadagi psixologik buzilishlar oqibatida shaxsning ruhiy muvozanatiga zarar yetadi, shaxslararo munosabatlarida qiyinchiliklar, jamiyatdan yakkalanish kuzatiladi, hayot va faoliyatida kamchiliklar, kelajagiga nisbatan ishonchsizlik, umidsizlik ortib boradi. Oxir-oqibatda esa bunday holat inson tomonidan og'riqli qabul qilinib, ruhiy azoblar iskanjasida qoladi. Ruhiy iztiroblarni, qayg'uni ko'tara olmaslik natijasida bunday holatlarda ba'zan o'z joniga qasd qilish kabi suitsidal xulq namoyon bo'ladi. Deviant xulq-atvor masalasining dolzarbliji maxsus yo'nalishdagi psixologiya – deviant xulq-atvor psixologiyasi doirasida amalga oshirilayotgan muhim ilmiy tadqiqotlar bilan uзвиy bog'liqidir. Deviant hatti-harakatlar – bu inson hatti-harakatlarining jamiyat yoki guruuhlar faoliyatiga, me'yorlar, xulq-atvor qoidalari, g'oyalar va munosabatlarga hamda jamiyat qadriyatlari mos kelmasligidir. Jamiyat normalari – bu doimiy o'zgarishlar oldida ijtimoiy tizimni, hayotiy muvozanatni ushlab turuvchi mexanizmdir.

Bugungi kunda deviant xulq-atvor muammosi sotsiologiya, psixologiya, tibbiyot fan sohalarning tadqiqot ob'ektiga aylangan. Deviant xulq-atvor asosan ijtimoiy muhitda shakllanadi, ijtimoiy muhit normalari asosida tartibga solinadi.

Muammoni o‘rganishda e’tibor beradigan bo‘lsak, asos me’yor (ijtimoiy me’yor) termini o‘zagini tashkil etadi. Me’yor xulq-atvorni tartibga soladi va ijtimoiy nazoratni amalga oshiradi. Deviant xulq-atvor muammosi bo‘yicha sharq olimlarining asarlarida ham bir qancha nazariy ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, ularning har biri tadqiqotimizning metodologik asosini tashkil qiladi. Endi sharq manbalaridan foydalanilgan holda keltirilgan nazariy ma‘lumotlar tahlillariga o‘tamiz.

Muayyan inson axloqida ijtimoiylashuvning istalgan variantida axloqning umumiyyatini foydalanib, quyidagilarni ifodalash mumkin:

□ asoslanganlik – shaxsning ehtiyojlari va maqsadlariga yo‘naltirilgan harakatlanishga ichki tayyorlik;

□ o‘xshashlik – aniq vaziyat bilan kelishish;

□ moslashish – ijtimoiy muhitning yetakchi talablariga muvofiqlik;

□ haqqoniylik – individuallik axloqining mosligi, uning ushbu shaxs uchun tabiiy ekanligi;

□ mahsuldarlik – ongli maqsadlarni amalga oshirish. Shaxs xulqining shunday belgilari borki, ular anchagina xususiy, biroq kam bo‘lmagan ahamiyatga egadir:

□ faollik darajasi (energiyalilik va tashabbuskorlik);

□ hissiy ifodalanganlik (namoyon etilayotgan affektlarning kuchi va xarakteri);

□ jo‘shqinlik;

□ turg‘unlik (turli vaqt va turlichcha vaziyatlarda ko‘rinishlarning doimiyligi);

□ onglilik (o‘z axloqini tushunish uni so‘z bilan tushuntira olish qobiliyat);

□ ixtiyoriylik (o‘zini-o‘zi nazorat);

□ egiluvchanlik (muhitning o‘zgarishiga javoban axloqni o‘zgartirish).

Ma‘lumki, maxsus adabiyotlarda “og‘ishgan xulq” atamasi ko‘pincha deviant axloq (deviatio – lotin tilida og‘ishgan) sinonimi bilan almashtiriladi. Kelgusida biz o‘zaro bir-birining o‘rnini to‘ldiruvchi sifatida har ikkala atamani qo‘llaymiz – “og‘ishgan”, “deviant”, bunda birinchi atama aniq va o‘rganilgan bo‘lgani sababli afzal ko‘riladi.

O‘rganilayotgan tushunchaning yaqqol ko‘rinib turgan murakkabligiga hammadan avval uning fanlararo xarakteri sababdir. Hozirgi vaqtida bu tushuncha ikki asosiy mazmunda foydalaniladi. Deviant axloq “rasman o‘rnatilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me’yorlarga mos kelmaydigan munosabat, inson harakati” ma’nosida psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida yuzaga chiqadi. “Inson faoliyatining ommaviy va mustahkam shakllariga nisbatan ifodalanuvchi va rasman o‘rnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud bo‘lgan me’yorlar va qarashlarga mos tushuvchi ijtimoiy ko‘rinish” ma’nosida sotsiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiyaning predmeti

hisoblanadi. Og‘ishgan xulqni birinchi aspektdagi afzalligi – individual faollikning ko‘rinishi sifatida ko‘rib chiqamiz.

Shaxsning og‘ishgan xulqining shunday maxsus xususiyatlarini ajratish maqsadga muvofiqki, u bizga bu xulqni boshqa fenomenlardan farqlashda, shuningdek, aniq bir odamda uning mavjudligi hamda dinamikasini aniqlash zaruratida yordam bersin:

1. Shaxsning og‘ishgan xulqi – bu umumqabul qilingan yoki rasman o‘rnatilgan ijtimoy me’yorlarga mos tushmaydigan axloq. Boshqacha aytganda, bu harakat mavjud qonunlar, qoidalar, an'analar va ijtimoiy buyruqlarga mos tushmaydigan harakatkardir. Deviant axloqni me’yordan og‘ishgan axloq sifatida baholashda ijtimoiy me’ylar o‘zgarishini inobatga olish lozim.

2. Shaxs va deviant axloq, uning namoyon bo‘lishi boshqa odamlar tomonidan salbiy baholanadi. Salbiy baho jamoatchilik muhokamasi yoki ijtimoiy sanksiya, shu jumladan, jinoiy jazo shakliga ega bo‘lishi mumkin. Dastavval, sanksiyalar istalmagan axloqning oldini olish vazifasini bajaradi. Biroq, boshqa tomondan ular shaxs stigmatizatsiyasi – unga tamg‘a osish kabi salbiy ko‘rinishga olib keladi. Masalan, jazo muddatini o‘tab, “me’yoriy” hayotga qaytgan odamning moslashuvdagagi qiyinchiliklari yaxshi ma’lum.

Insonning yangi hayot boslashga intilishi ko‘pincha atrofdagi odamlarning ishonmasligi va ularni rad etishi natijasida barbod bo‘ladi. Deviant (giyohvand, jinoyatchi, o‘zini-o‘zi o‘ldiruvchi va h.k.) tamg‘asi sekin-asta deviant tenglikni (o‘zini-o‘zi his qilish) shakllantiradi. Shunday qilib, axmoqona shuhrat xavfli yakkalanishni kuchaytiradi, ijobiy o‘zgarishlarga to‘sinqlik qiladi va deviant axloqning takrorlanishini chaqiradi.

3. Og‘ishgan xulqning xususiyatlari shaxsning o‘zi yoki atrofdagilarga ahamiyatli tarzda hayot sifatini pasaytirgan holda real zarar keltirishi hisoblanadi. Bu mavjud tartibning noturg‘unligi, ma’naviy va moddiy zarar keltirish, jismoniy zo‘rlik va dard-alam yetkazish, sog‘ligining yomonlashishi bo‘lishi mumkin. Deviant axloq o‘zining eng so‘nggi ko‘rinishlarida hayot uchun bevosita xavf tug‘diradi, masalan, suitsidal axloq, zo‘ravonlik jinoyatlari, “og‘ir” giyohvand moddalar iste’mol qilish kabilar. Zararning psixologik namoyon bo‘lishi o‘sha odamning o‘zi yoki uning atrofidagilarning aziyat chekishidir.

Ushbu belgi shaklan – destruktiv yoki autodestruktiv bo‘lishidan qat’iy nazar og‘ishgan xulqning parchalovchi ekanini bildiradi. Bizning nazarimizda radikallik, kreativlik va marginallik kabi yaqin ijtimoiy ko‘rinishlar og‘ishgan xulq bo‘la olmaydi va ifodalay olmaydi. Garchi ular ham umumqabul qilingan me’ylardan cheklanib, aholining konservativ holatga mayli bo‘lgan qismida g‘ashlik uyg‘otsada, bu fenomenlar jamiyat uchun xatardan ko‘ra foydaliroq bo‘lishi ham mumkin. Xullas, radikal moyil bo‘lgan shaxslar jamiyatni tubdan yangilashni maqsad qiladilar, bu esa ularda istiqbolli o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Kreatorlar nostandardligi bilan farqlanib, tadqiqotchilar va ilk ochuvchilar sifatida chiqadilar. Marginallar ijtimoiy me’ylarning chegaralarini kengaytirgan holda o‘zlarini ko‘pchilikka qarshi qo‘yadilar. Sanab o‘tilgan tushunchalarni uyg‘unlashishi

mumkin. Masalan, ko‘pincha o‘smirlar axloqi barcha uchta tendensiyanı o‘zida aks ettiradi Pirsing, tatuirovka yoki hatto chandiq bilan eksperiment o‘tkazgan o‘smirni, albatta, deviantlar guruhiga kiritish mumkin emas. Biroq geroin iste’mol qiluvchi o‘smir hayot uchun yuqori xatarli og‘ishgan xulqni yaqqol namoyish qiladi. Shunday qilib, og‘ishgan xulq o‘z mohiyati bo‘yicha destruktivdir.

4. Ko‘rib chiqilayotgan axloqni muhim takrorlanuvchi (ko‘p marotaba yoki uzoq muddatli) deb xarakterlash mumkin. Agar yetti yoshli bola ota-onasidan so‘ramay shirinliklar uchun uncha katta bo‘lmagan mablag‘ni olgan bo‘lsa, kelgusida ijtimoiy tartibni buzmasa, ushbu axloqni og‘ishgan sifatida ta’riflash odobdan bo‘lmaydi.

Aksincha, o‘smir tomonidan sistematik tarzda anglangan holda pul o‘g‘irligi sodir etilsa – bu og‘ishgan xulq shakllaridan biri hisoblanadi. Boshqa misol: hodisalar qatorida spirtli ichimlik iste’mol qilish to‘liq yo‘l qo‘yilgan yoki hatto foydali deb tan olinadi. Ushbu qoida istisnoga ega. Masalan, hatto bir martalik suitsidal urinish jiddiy xavf tug‘diradi va shaxsning og‘ishgan xulqi sifatida baholanishi mumkin.

5. Axloqni og‘ishgan deb kvalifikatsiya qilish uchun u shaxsning umumiy yo‘nalganligi bilan muvofiqlashishi zarur. Bunda axloq nostandard vaziyatlar oqibati (masalan, jarohatdan keyingi sindrom doirasidagi axloq), krizisli vaziyat oqibati (masalan, yaqin odamining o‘limi tufayli birinchi oy davomidagi qayg‘u reaksiyasi) yoki o‘zini-o‘zi muhofazalash oqibati (masalan, hayot uchun real xavfning mavjudligida) bo‘lmasligi lozim.

6. Og‘ishgan xulqning xususiyatlaridan biri u tibbiy me’yorlar chegarasida ko‘rib chiqiladi. U garchi patologik holat bilan uyg‘unlashsa-da, psixik kasalliklar yoki patologik holat bilan tenglashtirilmamasligi darkor. Psixik parokandalik holida psixik kasal odamning patologik axloqiga o‘rin bor. Patologik axloq tibbiy me’yorlardan og‘ishadi, birinchi darajasi tibbiy aralashuvni talab qiladi va psixiatriyada, masalan, psixik kasallarning deviant axloqi sifatida o‘rganiladi. Patologik axloq kasallik holati ta’siri ostida shaxsning o‘z harakatlarini anglash va nazorat qilish qobiliyatli ahamiyatli tarzda pasayishini nazarda tutadi.

Ayni damda muayyan sharoitlarda og‘ishgan xulq patologikka o‘tishi mumkin. Masalan, muhtoj bo‘lib qolgan axloq tizimli kasallikka o‘sib o‘tishi mumkin – piyonistalik, giyohvandlik. Shunday qilib, og‘ishgan xulqli shaxs “sog‘liq – kasallik oldi – kasallik” psixopatologik o‘qida istalgan joyni egallashi mumkin.

7. Og‘ishgan xulqning xususiyatlaridan biri u ijtimoiy moslashmaganlikning turlicha ko‘rinishlari bilan birga boradi. Ushbu axloq kasallik yoki o‘limga olib kelishi shart emas, biroq u tabiiy suratda ijtimoiy moslashmaganlik holatini uyg‘otadi yoki kuchaytiradi. Moslashmaganlik (dezadaptatsiya) holati, o‘z navbatida, shaxsning og‘ishgan xulqini mustaqil sababi bo‘lishi mumkin.

8. Og‘ishgan xulqning oxirgi belgisi sifatida uning ifodalangan individual va yosh-jinsiy o‘ziga xosligini ta’kidlash mumkin. Og‘ishgan xulq dastavval, shaxsning

jamiyatda tashqi mavjudligini aks ettiradi. U “ichki” jihatdan o‘ta turli-tuman bo‘lishi mumkin. Deviant axloqning bir xil turlari har xil odamlarda turli yoshda turlicha ko‘zga tashlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Elov Z.S. O‘s米尔arda suitsidga moyillik motivatsiyasini aniqlash va korreksiyalashning psixologik mexanizmlari. psix. фан. dok. ...diss. –Toshkent, 2023. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdon” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
2. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdon” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

## **O’ZBEKISTONDA RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR**

Omonova Sarvinoz Alijon qizi,  
ADCHTI, I-bosqich talabasi

O‘rta Osiyo, xususan, yurtimiz azal-azaldan ilm-ma’rifat o’chog‘i jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri deb e’tirof etib kelingan. O‘rta asrlardan xalqimiz ta’lim sohasida yuksak marralarga erishgan bo’lib, umumjahon madanyatida o‘z o‘rniga ega xalq sifatida fan sohasiga ulkan hissa qo’shishgan. Misol tariqasida IX-XII asrlarda Movarounnahrda ko’plab o’quv maskanlari bo’lib, ulardan chinakam olimlar, ulamolar yetishib chiqqan. Xususan, Xorazm Ma’mun akademysi ham shu davrda yirik tadqiqot markazlaridan biri hisoblangan. Jumladan matematika faniga Algebra atamasini kiritgan Al-Xorazmiy ham bizning ajdodimiz ekanligi, azal-azaldan qonimizda yaratuvchanlik, o’qish, izlanishga bo’lgan qiziqishdan dalolatdir. Bundan tashqari yana bir buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino o’sha olis XI- asrda xali fan-texnika inqilobi uyoqda tursin eng sodda tibbiy apparatlar bo’lmagan davrlarda murakkab dori-darmonlarni tayyorlab tibbiy jarrohlik muolajalarni amalga oshirgani bilan dunyoga mashhurdir. Uning “Tib qonunlari” asari Yevropada “Injil” kitobidan keyin eng ko’p nashr etilgan kitoblardan biri bo’lib 500 yil davomida dunyoning ko’plab nufuzli oliy o’quv yurtlarida barcha talabalar uchun darslik sifatida qo’llanib kelingan. Mamlakatimiz mustaqillikga erishgandan so’ng barcha sohalarda tub o’zgarishlar amalga oshirila boshladi. Ayniqsa ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratildi. Ta’lim- tarbiya tizimi takomillashgani sayin odamlarning ma’naviyati, ongi, tafakkur doirasi shakllanib, yuksalib bordi. “Ta’lim tizimini har tomonlama shaklan va mazmunan isloh qilish, yangilash lozim edi. Zero, jamiyat yangi shaxsni tarbiyalashni talab etayotgan bir paytda odamlarning ongi, dunyoqarashi, bilim saviyasini o’zgartirmay, uni zamonaviylashtirmay turib yangi jamiyatni barpo etib bo’lmaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillik yillarida ushbu jihatlarni inobatga olgan

## MUNDARIJA

KIRISH .....	4
YANGI O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY TA'LIM-TARBIYA MASALALARINING DOLZARB MUAMMOLARI .....	6
D.A.Rustamov, Andijon davlat chet tillari instituti rektori,f.f.d.,professor .....	6
MAMLAKATIMIZ YOSHLARI – YANGI O'ZBEKISTONNING POYDEVORIDIR .....	10
Kurbanov Muzaffar Abdumalibovich f.f.b.f.d. (PhD), .....	10
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUV JARAYONI DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI .....	13
Teshaboev Akromjon Uyldashevich,.....	13
АКТУАЛЬНОСТЬ МЕТОДА ПРОЕКТОВ И ЕЕ ПРИМЕНЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ .....	17
Н.Д.Касимова –доцент кафедры.....	17
Метод проектов направлен на: .....	21
YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ROLI .....	24
Kasimova Nargiza Dilmuratovna-.....	24
BO'LAJAK MUXANDISLARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QITISHDAGI ZARURIY JIXOZLAR.....	27
B.S.Abdullaeva p.f.d,professor .....	27
A.R.Madaminov .....	27
G'ARB OLIMLARINING QARASHLARIDA KOMPLAENS VA KREATIVLIK XUSUSIYATLARI .....	32
N.D.Kasimova –ADCHTI dotsenti,p.f.n. .....	32
Sh.Usmonova.....	32
QOZOQ OILASINING O'ZIGA XOS URF-ODATLARI .....	35
Arapbayeva Damegul Kurbanovna .....	35
O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJY TADQIQOTLAR SHARHI .....	39
Mirzakarimova Maxliyoxon Madaminjonovna,.....	39
INTELLEKTUAL MUVAFFAQIYAT SHAXS AQLIY TAJRIBASINING O'ZIGA XOSLIGINI NAMOYON BO'LISHI SIFATIDA .....	43
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich .....	43
ILMIY IJODIY FAOLIYATDA DAHOLIKNING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI .....	48
Fozilov G'olibjon Nabijonovich .....	48
ТВОРЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА .....	51
Александрова Светлана Генадьевна .....	51
РАЗВИТИЕ МЕЛКОЙ МОТОРИКИ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА .....	55
Г.А.Тохтасунова - преподаватель кафедры .....	55

SHAXS MA'NAVİYATINI SHAKLLANISHIDA OİLAVİY MUHİTNİNG Ö'RNI.....	630
S.R Holdarov ADU "Falsafa" kafedrası o'qituvchisi.....	630
KONFUTSIY VA UNİNG FALSAFIY TA'LIMOTI.....	632
S.R Holdarov ADU "Falsafa" kafedrası o'qituvchisi.....	632
ZAMONAVİY JAMIYATDA ENERGETİKA MUAMMOSI - GLOBAL MUAMMO SİFATIDA .....	634
Qodirjon Odilov – ADCHTI kata o'qituvchisi, f.f.n.....	634
ZAMONAVİY TEKNOLOGİYALAR ASOSIDA YANGI KO'YLAKBOB TO'QIMA DİZAYNINI YARATİSH MASALASIGA DOİR.....	639
РЕЧЕВОЙ ЖАНР КАК РЕЧЕВОЙ МЕХАНИЗМ.....	642
Закирова Дилрабо Хайдаровна .....	642
DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILGANLIK HOLATI...667 Narziyeva Shaxnoza Rustamovna.....	667